


Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**HONORIFIC VERBS IN THE KOREAN LANGUAGE AND THEIR MEANS OF
EXPRESSION IN THE UZBEK LANGUAGE****Zamona Salahiddinovna Khudoyberdieva***Samarkand State Institute of Foreign Languages, Korean teacher**e-mail: ms.zamona91@gmail.com**Samarkand, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Korean language, Uzbek language, honorific category, verb, comparative linguistics, social hierarchy, communicative culture.

Received: 10.11.25**Accepted:** 11.11.25**Published:** 12.11.25

Abstract: This article analyzes the category of honorifics in the Korean language and its grammatical means of expression, as well as compares them with the ways of expressing respect in the Uzbek language. The study reveals that the honorific category in Korean verbs appears on three levels: subject honorifics (e.g., 가시다, 드시다), addressee honorifics (합니다체, 해요체), and third-person honorifics, with detailed linguistic examples. In contrast, the Uzbek language expresses respect not grammatically but through lexical (honorific words), syntactic (plural forms), and pragmatic (speech tone and politeness) devices. The comparative analysis demonstrates that the Korean language reflects social hierarchy through a structured grammatical system, whereas the Uzbek language conveys respect through cultural and communicative norms. The study highlights the interrelation between language and culture and the linguistic mechanisms that indicate social relationships in communication.

**KOREYS TILIDAGI HURMAT FE'LLARI VA ULARNING O'ZBEK TILIDAGI
IFODA VOSITALARI****Zamona Salahiddinovna Xudoyberdiyeva***Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi**e-mail: ms.zamona91@gmail.com**Samarqand, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp>

Kalit soʻzlar: koreys tili, oʻzbek tili, hurmat kategoriyasi, feʼl, qiyosiy tahlil, ijtimoiy ierarxiya, muloqot madaniyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys tilidagi hurmat kategoriyasi va uning grammatik ifoda vositalari tahlil qilinadi hamda oʻzbek tilidagi hurmatni ifodalash vositalari bilan qiyoslanadi. Maqolada koreys tilining morfologik tizimida hurmat darajalari, xususan, subyektga nisbatan hurmat (가시다, 드시다), tinglovchiga nisbatan hurmat (합니다체, 해요체) va uchinchi shaxsga hurmat kabi shakllar batafsil yoritilgan. Shuningdek, oʻzbek tilida hurmat kategoriyasi grammatik emas, balki leksik, sintaktik va pragmatik darajada amalga oshishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Qiyosiy tahlil natijasida koreys tilidagi hurmat ifodasi tizimli va grammatik xususiyat kasb etishi, oʻzbek tilida esa madaniy-nutqiy mezonlar orqali namoyon boʻlishi aniqlanadi. Maqola til va madaniyat oʻzaro bogʻliqligini, shuningdek, muloqotdagi ijtimoiy hierarxiyani lingvistik ifodalanish mexanizmlarini koʻrsatib beradi.

ПОЧТИТЕЛЬНЫЕ ГЛАГОЛЫ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ И СРЕДСТВА ИХ ВЫРАЖЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Замона Салахаддиновна Худойбердиева

Преподаватель

Самаркандского государственного института иностранных языков

e-mail: ms.zamona91@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: корейский язык, узбекский язык, категория вежливости, глагол, сравнительная лингвистика, социальная иерархия, коммуникативная культура.

Аннотация: В данной статье анализируется категория вежливости (хонорификсы) в корейском языке и грамматические средства её выражения, а также проводится сравнение с способами выражения уважения в узбекском языке. Исследование показывает, что категория вежливости в корейских глаголах проявляется на трёх уровнях: почтительное отношение к субъекту (например, 가시다, 드시다), почтительное отношение к адресату (합니다체, 해요체) и почтительное отношение к третьему лицу, с подробными лингвистическими примерами. В отличие от этого, в узбекском языке уважение выражается не грамматически, а с помощью лексических средств (почтительные слова),

синтаксических (множественные формы) и прагматических (тон речи и вежливость) средств. Сравнительный анализ демонстрирует, что корейский язык отражает социальную иерархию через структурированную грамматическую систему, тогда как узбекский язык передаёт уважение через культурные и коммуникативные нормы. Исследование подчёркивает взаимосвязь между языком и культурой и лингвистические механизмы, указывающие на социальные отношения в общении.

Til madaniyati va nutq etiketi har bir xalqning milliy tafakkuri, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim tizimlardan biridir. Koreys tili dunyo tillari orasida o‘zining murakkab hurmat (honorifik) tizimi bilan ajralib turadi. Ushbu tizim orqali so‘zlovchi tinglovchiga, uchinchi shaxsga yoki mavzuga nisbatan hurmat darajasini bildiradi. O‘zbek tilida ham hurmat ifodasi mavjud, biroq u asosan leksik va nutqiy vositalar yordamida amalga oshadi. Mazkur maqolada koreys tilidagi hurmat fe’llari tizimi va ularning o‘zbek tilidagi ifoda vositalari qiyosiy tahlil qilinadi.

1. Hurmat kategoriyasining nazariy asoslari

Hurmat kategoriyasi (honorifiklik) — bu til tizimida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy, yosh, mavqe va munosabat farqlarini grammatik, leksik yoki pragmatik vositalar orqali ifodalovchi lingvistik hodisadir. U ijtimoiy tilshunoslik (sosiolingvistika) va pragmalingvistika sohalarida keng o‘rganiladigan kategoriya bo‘lib, til va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi. Tilshunos olimlarning ta’kidlashicha, hurmat kategoriyasi kommunikativ madaniyatning bir qismidir. So‘zlovchi har bir nutq vaziyatida tinglovchining yoshi, mavqei, ijtimoiy darajasi va shaxsiy munosabatiga qarab nutq strategiyasini tanlaydi. Bu hodisa tilning etik-madaniy vazifasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Hurmat kategoriyasi turli tillarda turlicha shakllanadi:

Koreys, yapon va xitoy tillarida u grammatik kategoriya darajasiga ko‘tarilgan. Ya’ni fe’l va boshqa so‘z turkumlarida maxsus qo‘shimchalar, affikslar va fe’l variantlari mavjud.

O‘zbek, rus yoki ingliz tillarida esa hurmat ifodasi leksik, sintaktik yoki pragmatik vositalar orqali amalga oshadi (masalan, “siz” shakli, “janob”, “ustoz”, “marhamat” kabi so‘zlar orqali).

Hurmat kategoriyasining ilmiy o‘rganilishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo‘lib, Brown va Levinson (Brown & Levinson, 1987) tomonidan ishlab chiqilgan “Politeness Theory” (muloyimlik nazariyasi) bu sohada asosiy nazariy poydevor hisoblanadi. Unga ko‘ra,

inson muloqotda o'zining va suhbatdoshining "ijtimoiy yuzi"ni saqlashga intiladi. Shu bois hurmat ifodalovchi shakllar sotsiopragsmatik strategiya sifatida qo'llanadi.

Koreys tilida hurmat kategoriyasi uch darajada namoyon bo'ladi:

1. Subyektga hurmat (subject honorifics) — gapdagi harakatni bajaruvchi shaxs hurmatga sazovor bo'lsa, fe'l maxsus hurmat shaklida ifodalanadi. Masalan, 가다 → 가시다 (bormoq → boradilar).

2. Tinglovchiga hurmat (addressee honorifics) — so'zlovchi tinglovchining maqomiga qarab nutq darajasini tanlaydi: 합니다체, 해요체, 해체 kabi uslublar.

3. Uchinchi shaxsga hurmat — mavzu bo'lgan shaxs hurmatga sazovor bo'lsa, fe'l va qo'shimchalar shunga mos tarzda o'zgaradi.

O'zbek tilida esa hurmat grammatik kategoriya sifatida mustaqil shakllanmagan. Ammo sintaktik (ko'plik shakli) va leksik (hurmat bildiruvchi so'zlar) orqali yuzaga chiqadi: "Siz bordingizmi?", "Domla keldilar", "Hurmatli ustozimiz". Bu holat o'zbek xalqining muomala odobi va milliy qadriyati bilan bog'liq.

2. Koreys tilida hurmat fe'llari tizimi

Koreys tilida hurmat tizimi grammatik jihatdan mukammal tuzilgan bo'lib, u uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'ladi:

- 1) So'zlovchining tinglovchiga bo'lgan hurmati (addressee honorifics),
- 2) Gap mavzusiga (subject honorifics),
- 3) Uchinchi shaxsga nisbatan hurmat.

Fe'l shakllari bu hurmat tizimining markaziy qismini tashkil etadi. Hurmat ifodalaydigan maxsus fe'llar yoki fe'l shakllari mavjud bo'lib, ular o'zining oddiy shaklidan ma'nodosh, ammo hurmatliroq variant bilan almashtiriladi. [Jo'rayev M,27]

Koreys tilidagi hurmat fe'llariga misollar

먹다— 'yemoq' → 드시다, 잡수시다— hurmat shakli

자다— 'uxlamoq' → 주무시다— hurmat shakli

있다— 'bo'lmoq' → 계시다— hurmat shakli

죽다— 'o'lmoq' → 돌아가시다— hurmat shakli

말하다— 'gapirmoq' → 말씀하시다— hurmat shakli

주다— 'bermoq' → 드리다— hurmat shakli

먹었어요 — 'yedi' → 잡수셨어요 / 드셨어요 — 'hurmat shakli: taom tanovul qildilar'

Koreys tilida shuningdek, fe'lning oxiriga hurmat qo'shimchasi '-시-/-으시-' qo'shilishi orqali ham hurmat darajasi oshiriladi. Masalan:

가다— ‘bormoq’ → 가시다— ‘boradilar (hurmat shakli)’.

읽다— ‘o‘qimoq’ → 읽으시다— ‘o‘qiydilar’.

Fe’llarning hurmat shakllari koreys jamiyatidagi ijtimoiy pog‘onalar bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, talaba o‘qituvchiga nisbatan ‘말씀하시다’, ‘주무시다’ kabi fe’llarni ishlatadi, biroq do‘stiga nisbatan ‘말하다’, ‘자다’ kabi oddiy shakllarni qo‘llaydi.

3. O‘zbek tilida hurmat ifoda vositalari

O‘zbek tilida hurmat ifodasi grammatik darajada emas, balki leksik va nutqiy darajada amalga oshadi.[Jo‘rayev M, 46] Hurmat bildirish uchun so‘zlovchi quyidagi vositalardan foydalanadi:

– hurmatli so‘zlar: siz, janob, opa, aka, domla, ustoz;

– fe’l shakllarida ko‘plik: ‘siz bordingizmi?’, ‘siz keldingizmi?’;

– modallik va ohang: ‘iltimos qilaman’, ‘marhamat’, ‘rahmat aytaman’.

Masalan, o‘zbek tilida ‘U keldi’ gapini hurmat bilan ‘U keldilar’, ‘Domla keldilar’ tarzida aytish mumkin. Bu holatda grammatik ko‘plik shakli semantik hurmat ma’nosini bildiradi.

4. Qiyosiy tahlil

Koreys va o‘zbek tillaridagi hurmat ifodasi o‘xshash maqsadga xizmat qiladi, ammo ularning grammatik tuzilishi farqlidir. Koreys tilida hurmat grammatik kategoriya sifatida fe’lga birikadi yoki fe’lning butunlay alohida varianti ishlatiladi. O‘zbek tilida esa bu ma’no sintaktik (ko‘plik shakli) va leksik (muomala so‘zlari) vositalar orqali beriladi.

Masalan, koreys tilida:

선생님이 오셨어요.— ‘Ustoz keldilar’ (hurmat shakli)

Oddiy shakli: 선생님이 왔어요.— ‘Ustoz keldi’.

O‘zbekcha tarjimasini har ikkala holatda ham ‘Ustoz keldilar’ bo‘lishi mumkin, lekin o‘zbek tilida bu hurmat ko‘plik shakli orqali bildiriladi.

Yana bir misol:

할아버지께서 주무세요. — ‘Bobom uxlayaptilar’.

Oddiy shakl: 할아버지가 자요.— ‘Bobom uxlayapti’.

Bu yerda 주무시다 fe’li hurmat ma’nosini ifodalagan.]

Demak, koreys tilida fe’lning o‘zgarishi orqali hurmat darajasi aniq ifodalanadi, o‘zbek tilida esa bu ma’no so‘z tanlovi va ko‘plik shakli orqali bildiriladi. Ikkala tilda ham hurmat ifodasi milliy madaniyat bilan chambarchas bog‘liq.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, koreys tilida hurmat fe’llari murakkab grammatik tizimga ega bo‘lib, ular ijtimoiy tabaqalanish va madaniyatni aks ettiradi. O‘zbek tilida esa hurmat ifodasi

ko‘proq muomala, intonatsiya va fe‘lning ko‘plik shakli orqali amalga oshadi. Koreys tilining hurmat tizimi nafaqat tilshunoslik, balki sosiolingvistik jihatdan ham o‘rganishga arzigulik murakkab hodisadir.

Shunday qilib, hurmat kategoriyasi — til tizimidagi ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi universal hodisa bo‘lib, har bir xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi. Koreys tilida u grammatik darajada kodlashgan bo‘lsa, o‘zbek tilida u nutqiy madaniyat va so‘z tanlovi orqali amalga oshadi

Tilshunoslikda hurmat kategoriyasi (honorifiklik) ijtimoiy muloqotda ishtirok etuvchi shaxslarning ijtimoiy maqomi, yoshi yoki munosabatiga ko‘ra nutqda aks etadigan ifoda tizimi sifatida izohlanadi. Koreys tilida bu tizim fe‘l, ot, qo‘shimcha va affikslarda grammatik tarzda ifodalanadi. O‘zbek tilida esa hurmat ko‘proq so‘z tanlovi, muomala shakli va nutq ohangi orqali bildiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kim, Jae-Hoon. Korean Grammar in Use. – Seoul: Darakwon, 2012.
2. Lee, I. & Ramsey, S. The Korean Language. – Albany: SUNY Press, 2000.
3. Xan V. Koreya tili grammatikasi asoslari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018.
4. Cho, Y. & Sohn, H.-M. Honorifics and Politeness in Korean. – Seoul: Hankookmunhwasa, 2015.
5. Jo‘rayev M. Hozirgi o‘zbek tili: Morfologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
6. Usmonqulovna, B. D., & Qizi, Q. L. Z. (2024). KOREYS TILIDA OT, SIFAT VA BOSHQA SO ‘Z TURKUMLARIDA POLISIMIYA HODISASINING IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 49-54.
7. Базарова, Ш. (2024). Судьба женщины в рассказах Айдын Собировой. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(2/S), 24-28.
8. Shuxratovna, B. S. (2024). O ‘ZBEK VA KOREYS MAQOLLARIDA GENDERLIK MASALASI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 83-86.